

IV. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRLIK

UDK:333.124.3

HUDUDLARDA TADBIRLIKNI RIVOJLANТИRISHNING INVESTITSION YO'NALISHLARI VA TAMOYILLARI

Namozov A.Sh. – “Qashqadaryo mintaqaviy yo'llariga buyurtmachi xizmati”
davlat muassasasi direktori o'rinosi

ИНВЕСТИЦИОННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕГИОНАХ

Намозов А.Ш. - Заместитель директора государственного учреждения
«служба заказчик дорог Кашкадарьянской области»

INVESTMENT DIRECTIONS AND PRINCIPLES OF ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN THE REGIONS

Namozov A.Sh. - Deputy Director of the state institution “Road
Contractor Service of the Kashkadarya Region”

Annotatsiya. Davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning evolyutsion rivojlanish tendentsiyalarini o'rganib chiqdi. Tadbirkorlik toifalari bo'yicha ta'limgotlarni nazariy tahlil qilish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilgan shart-sharoitlar va tashkiliy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga berilgan baholar tahlil qilingan. Hududlar va hududlarda tadbirkorlikning iqtisodiy va moliyaviy muvozanatini ta'minlash mexanizmi o'rganildi. Shuningdek, investitsiya siyosatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'rni va faoliyati o'rganiladi. Tadbirkorlik sohasidagi mavjud muammolarni to'g'ridan-to'g'ri va xorijiy investitsiyalar hisobidan hal etish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Prinsiplar tadbirkorlikning investitsiya yo'nalishlari asosida taklif etiladi.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, investisiya faoliyati, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, qo'shma korxonalar, tadbirkorlik.

Аннотация. В статье рассмотрены тенденции эволюционного развития малого бизнеса и частного предпринимательства. Указаны направления теоретического анализа ученых по категории предпринимательства. Анализируются оценка условий, созданных для предпринимательства, и показатели организационно-экономического развития. Исследован механизм обеспечения экономической и финансовой сбалансированности предпринимательства в регионах. Также изучается роль хозяйствующих субъектов и их деятельности в инвестиционной политике. Указаны направления решения существующих проблем в сфере предпринимательства за счет прямых и иностранных инвестиций. В статье предложены принципы, как основы инвестиционных направлений предпринимательства.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная деятельность, внешнеторговый оборот, экспорт, импорт, совместные предприятия, предпринимательство.

Annotation. The article examines the trends in the evolutionary development of small businesses and private entrepreneurship. The directions of theoretical analysis of scientists in the category of entrepreneurship are indicated. The assessment of the conditions created for entrepreneurship and indicators of organizational and economic development are analyzed. The mechanism for ensuring economic and financial balance of entrepreneurship in the regions has been studied. The role of economic entities and their activities in investment policy is also studied. Directions for solving existing problems in the field of

entrepreneurship through direct and foreign investment are indicated. The article proposes principles as the basis for investment directions of entrepreneurship.

Key words: investments, investment activity, foreign trade turnover, export, import, joint ventures, entrepreneurship

1. KIRISH

Bozor munosabatlarining qaror topishi sharoitida turli mulk shaklidagi xo‘jalik subyektlarining yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishga intilishi yo‘lidagi faoliyatları talab va taklif, qiymat qonunlari tamoyillari asosida boshqarilib, bu holat bozorda iste’molchilar va ishlab chiqarish xo‘jalik subyektlari to‘la iqtisodiy erkinlikka ega bo‘lishlarini taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotining evolyutsion rivojlanishida iste’molchilar va ishlab chiqarish subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar muvozanatini tadbirkorlik ta’minlab kelgan. Davlatning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvi chegarasi qonunchilik, soliqqa tortish darajasi, iqtisodiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatdorlik asosida munosabat yuritishga imkon beradigan kichik tadbirkorlikka joriy etilgan imtiyozlar tizimi orqali tartibga solinishi lozim. Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida raqobatning rolini oshirish zaruriyati obyektiv va qonuniy jarayondir. Raqobat ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning iqtisodiy erkinlik darajasini kengaytiradi, jami to‘lovga qobil talabni oshiradi, kapitalning o‘z-o‘zidan o‘sish tendensiyasini kuchaytiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning kichik va xususiy tadbirkorlik sohasini tartibga solish funksiyasi saqlanib qolishi zarur. Bunga, eng avvalo, mamlakat ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy salohiyatini tiklashda, asosiy sharti kichik biznes faoliyatiga aralashmaslik va maqsadga muvofiq soliq siyosatini yuritish hisoblangan qulay investitsiya muhitini barpo etishda kichik korxonalarining sezilarli rolini tan olgan holda qonunchilik vositasida ularni qo‘llab-quvvatlash orqali erishiladi.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dastlabki «tadbirkorlik» kategoriyasining ifodasi R.Kontilon, K.Bodo, I.X.Tyunen va F.Naytlar bilan bog‘liqdir. Birinchi bor «tadbirkorlik» ilmiy termin sifatida R.Kontilon tomonidan kiritilgan bo‘lib, bozor talabi va taklifi o‘rtasidagi farqni, arzon sotib olish va yuqori bahoga sotishning imkoniyatlarini aniqlagan. Foyda olish uchun ushbu imkoniyatlarni amalga oshiruvchi insonlarni tadbirkorlar deb bilganlar. «Tadbirkorlik»ni R.Kantil’on tavakkalchilik sharoitida harakat qiluvchi kishi deb tushunib, uni bozor imkoniyatlarini ko‘ra bilish, foyda olish maqsadida tavakkalchilikni o‘ziga olish yo‘li bilan amalga oshiradi, deb hisoblaydi. K.Bado (fiziokrat) o‘zining xulosalarida o‘z zamondoshlaridan o‘zib ketdi. U ta’kidlaydiki, «tadbirkor» ma’lum intellektga, ya’ni turli axborotlar va bilimlarga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi.

Tadbirkorlik muammosiga hozirgi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari asosida tadbirkorlikning mohiyatini tahlil qilgan holda quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin: Birinchi yo‘nalish- tadbirkorlik bu foyda olish uchun yo‘naltirilgan mustaqil iqtisodiy faoliyatdir.

Ikkinchi yo‘nalish – tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olishni inkor qilmay, balki tadbirkorlik mohiyatini aniqlovchi sifatida, resurslarning yangi kombinatsiyalarini amalga oshirishda munosabatlar yig‘indisiga asoslangan holda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishish hamdir [3].

Uchinchi yo‘nalish – tadbirkorlik faoliyatini resurslarning harakatini

boshqarishda ijodkorlik zarur, deb hisoblanadi. Ularga D.V.Busigin, V.D.Kamayev, I.N.Gerchikova, F.M.Rusinov [4] va boshqalarni kiritish mumkin. Bu olimlarning tadqiqotlarida tadbirkorlik oddiy mehnat faoliyati emas, balki ijodiy aktivlik sifatida aks ettirilgan.

Ishlab chiqarish omillarini birlashtirish tadbirkorlik faoliyatining asosiy mohiyati sifatida A.Marshall asarlarida rivojlantirilgan. Tadbirkorlar yoki biznesmenlar ko'rsatilgan vazifalarni bajarish doirasida butun xo'jalik tavakkalchilagini o'zlariga oladilar, «ishlab chiqarishga zarur bo'lган kapital va mehnatni birlashtiradilar, ishlab chiqarishning umumiyoq rejasini tuzadilar va loyihalashtiradilar, uning qo'shimcha qismlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar» [5].

Xo'jalik yuritishning murakkablashuvi sari uning samaradorligini oshirish va kishilar ehtiyojni to'la qondirish maqsadida tashkiliy vazifa ishlab chiqarishdan ajrala boshlaydi va maxsus qatlama vositachi-tadbirkorlar davrasiga ajraladi. A.Marshall ta'rifi bo'yicha tadbirkor keng ma'noda menejerdir. Menejer vazifasining ajralib chiqishi, ushbu bilan bog'liqliki, «ishchi kuchi» yuqori darajada tijorat yuritishga ixtisoslashmagan. Tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Y.Shumpeter o'zining iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi doirasida J.B.Sey va A.Marshall g'oyalarini kengaytirgan. U haqiqatdan, birinchilardan g'arb iqtisodiy nazariyasida iqtisodiy tizimni dinamik va rivojlanuvchi kuch sifatida qaradi.

Yuqoridagi aytib o'tilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, tadbirkorlik foya olish maqsadida innovatsiya va tavakkalchilikka asoslangan holda resurslarni birlashtirish va harakatga keltirish, boshqarish jarayonini o'z ichiga olgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish faoliyatidir [7]. Shuningdek, tadbirkor yirik loyihalarni amalga oshirish uchun resurslarni birlashtirish jarayonida investitsiyalardan

foydalananish tamoyillarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'naliishlaridan biri investitsiya siyosatini to'g'ri tashkil qilish va yo'naliishlarni aniq belgilashdan iboratdir. Birinchi galda xorijiy investitsiyalarni jalb etish ayniqsa kichik biznes xususiy tadbirkorlik korxonalarini hamda yetakshi sanoat tarmoqlariga qaratilishi lozim. Xorijiy sarmoya ishtirokida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, kichik biznes korxonalarini zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin [9]. Bularning barchasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ichki investitsion manbalar va xorijiy sarmoyalarni jalb etish muammolarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va ularni hal etish choralarini ishlab chiqish hamda asosiy yo'naliishlarni belgilashdan iboratdir. Hozirgi bosqichda O'zbekistondagi eng muhim vazifa - iqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini iqtisodiy o'sish siyosati bilan bog'lash bo'lib, bu hol investitsiya faoliyatini kuchaytirishni talab qiladi. Ushbu masalani hal qilinishi moliyaviy-iqtisodiy qiyinchiliklarni yengishga, mamlakat iqtisodiyotining keng ko'lamma tarkibiy qayta qurishga, birlamchi boshqarish tuzilmalarida qulay ishlab chiqarish muhitini yaratish muammosini hal qilishga, aholi turmush darajasini oshirishni ta'minlashga imkon beradi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda kichik biznes rivojining nazariy-uslubiy asoslari, investitsion faoliyatda kichik biznes rivoji, kapital bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'naliishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga

tayangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion siyosatda keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizini tashkil etgan maqsadlarga erishishda oldimizga qo‘yilgan ustuvor vazifalar qatoridan o‘rin olgan iqtisodiyotimiz rivojining muhim sharti bo‘lgan faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish vazifasini amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so‘mlik yoki 2021 yilga nisbatan 16 foiz ko‘p investitsiyalarni o‘zlashtirish mo‘ljallanmoqda. Bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga yetkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxona ishga tushiriladi [1]. Biroq, iqtisodiyotga jalb etilayotgan va o‘zlashtirilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining o‘sib borishiga erishilayotgan bo‘lsak-da, ammo, u amalda ularga bo‘lgan talab va ularni qabul qilish salohiyati darajasida emasligi bu boradagi siyosatni yangi bosqichga olib chiqish asosida yanada faol va izchil davom ettirish zarurligini taqozo etayotir. Buni BCG ekspertlarining bergen baholari tasdiqlamoqda. BCGning “Markaziy Osiyoga investitsiyalar: bir mintaqqa, ko‘plab imkoniyatlar” ma’ruzasi mualliflari Markaziy Osiyo global tushkunlik o‘sib borayotgan sharoitda investorlar uchun yangi maskan bo‘lishi mumkin, deb hisoblamoqda. Ular mintaqaning noxomashyo sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kiritish salohiyatini 40–70 mlrd. dollar deb baholashmoqda. BCG hisob-kitobiga ko‘ra, Qozog‘iston noxomashyo sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etish hajmini 32–52 mlrd. dollarga oshirishi mumkin. Markaziy Osiyoda investitsion salohiyat bo‘yicha yetakshi uchlikdan O‘zbekiston (7–13 mlrd. dollar) va Qirg‘iziston (1,3–2 mlrd. dollar) ham o‘rin olgan [13]. Quyidagi rasmda

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan faol investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar hajmi va dinamikasi keltirilgan. Qashqadaryo viloyatida 2022 yilda iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiya 189924,3 milliard so‘mni tashkil qilib, 2008 yilga nisbatan 124 marta, 2012 yilga nisbatan 7,7 marta, 2022 yilga nisbatan 1,5 martaga oshgan. Buning natijasida tashqi iqtisodiy faoliyat ham birmuncha faollandi. Jumladan tashqi savdo aylanmasining ijobjiy saldosi ta’mindandi. Jumladan, Qashqadaryo tashqi savdo aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2022 yilda 29,4 foizni tashkil qilib, keyingi besh yilda ikki barobardan ortiq oshgan. Shuningdek, investitsiyalash natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishlab chiqarish hajmi oshib, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keyingi besh yilda 10 foizga oshgan.

Investitsiya jarayonlarini faollashtirish vazifasi tegishli tartibga soluvchi vositalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu vositalarsiz bozor munosabatlarini rivojlantirish sari tabiiy harakatni amalga oshirib bo‘lmaydi. Investitsiya siyosati milliy iqtisodiyot, tarmoqlar hamda hududlar rivojlanishi bilan uyg‘un bo‘lsagina o‘zining kutilgan samarasini beradi. Investorlarning hududlar ravnaqiga pul tikishi uchun ularga qulay tashkiliy-huquqiy shartsharoit yaratish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masaladir.

Ammo shuni aytishimiz lozimki, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar jami investetsiyalardagi ulushi 12 foizni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 2,1 fozga kamayganlinini ko‘rishimiz mumkin. Bu tadbirkorlik subyektlarida molivaviy – iqtisodiy bazasining kamligini anglatadi. Ammo kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi

ulushi keyingi besh yil davomida 12,7 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, eksport va import hajmi ham oshgan. Bu shuni ko‘rsatdiki, yirik sanoat korxonalari va hamda xorijiy investitsiyalar hajmi oshib bormoqda [12].

Keyingi yillarda davlat budgeti tomonidan bir qator yirik ishlab chiqarish majmualari moliyalashtirilmokda. Jumladan, bozor iqtisodiyotni sharoitida davlat milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi obyektlarni moliyalashtirilgan. Xususiy lashtirishning kengayishi hamda xususiy sektorning rivojlanib borishi bilan davlat budgeti mablag‘lari hisobiga investitsiyalash kamayib boradi. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham davlat budgeti tomonidan tibbiyot, fan madaniyati, maorif va boshqa ijtimoiy sohalar, loyihamoqda moliyalashtiriladi hamda bu maqsadga muvofiqdir. Bunga misol keyingi paytlarda mamlakatimizda keng miqyosda qurilib foydalanish topshirilayotgan tibbiyot muassasalari, ta‘lim muassalari, uyjoy qurilishi va boshqalarni keltirish mumkin. Jumladan, 2022 yilda Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 15321,1 milrd. so‘mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 3 barobar oshgan. Shundan noishlab chiqarishga sarflangan investitsiyalar jami investitsiyalarda 30 foizni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan ikki barobarga oshgan. Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmog‘iga 70 foizga yaqin investitsiyalar jalb etilgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan mablag‘lar manbaidan korxonalar ishlab chiqarishini barpo qilishda yirik sanoat korxonalarini modernizatsiya yoki texnik - texnologik jihatdan yangilashda, kichik korxonalarda aylanma mablag‘larini ko‘paytirishda foydalanish mumkin. Hozirgi kunda ko‘pgina korxonalarni moddiy jihatdan qo‘llab-

quvvatlash maqsadida davlat tomonidan subsidiyalar va boshqa yordam mablag‘lari ajratilmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan qo‘llab-quvvatlash siyosati asosida korxonalarga, ayniqsa endigina ish boshlagan xorijiy investitsion yoki boshqa turdagи kichik va o‘rta korxonalarga soliq imtiyozlarini berishi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar mana shu imtiyozli davr mobaynida soliq to‘lovlarini amalga oshirmaydilar va shu summalarini o‘z ishlab chiqarishlarini kengaytirishga yo‘naltiradilar.

Bundan tashqari korxonalar o‘zlariga keraksiz bo‘lgan asosiy vosita va boshqa mulklarni sotish yoki ijara berish orqali ham qo‘srimcha mablag‘larga ega bo‘lishlari lozim. Investitsiya loyihamoqda turli xil manbalar hisobiga moliyalashtirishda bank kreditlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida aholi mablag‘lari investitsiya loyihamoqda moliyalashtirishning zarur manbai hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganligi aholi mablag‘lari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarga yo‘naltirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Viloyatda ham qimmatli qog‘ozlar bozori shakllanib bormoqda, aholining bo‘sh pul mablag‘larining jamg‘arish tijorat banklarida amaga oshirilmoqda va ushu jamg‘arma mablag‘lari ko‘proq qisqa muddatdi kredit ishiga yo‘naltirilmoqda. Shuni aytish kerakki viloyatimizda chet investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 2022 yilda 192 birlikni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 4,2 barobar oshgan. Qashqadaryo viloyatida xorijiy kapital ishtiroyidagi korxonalar soni 2022 yilda 2019 yilga nisbatan qishloq xo‘jaligi (9 marta), sanoat (3,2 marta), qurilish (10 marta), qurilish (3,8 marta), tashish va saqlash sohasi (4 marta) o‘sgan [10].

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiya jarayonlarini faollashtirish vazifasi tegishli tartibga soluvchi vositalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu vositalarsiz tadbirkorlikni rivojlantirish sari tabiiy harakatni amalga oshirib bo‘lmaydi. Investitsiya siyosati milliy iqtisodiyot, tarmoqlar hamda hududlarda tadbirkolik rivojlanishi bilan uyg‘un bo‘lsagina o‘zining kutilgan samarasini beradi. Investorlarning hududlar ravnaqiga pul tikishi uchun ularga qulay tashkiliy-huquqiy shartsharoit yaratish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masaladir. Shu o‘rinda investitsion jarayonlarni tahlil qilish va amalga oshirishda kelajakda iqtisodiy rivojlanishga asos bo‘luvchi investitsiya yo‘nalishlariga urg‘u berish kerak.

Fikrimizcha, investitsiya deganda ko‘p qirrali faoliyatni tushunish lozim va u bo‘sh bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni kelajakda moddiy va moliyaviy boylikni yaratuvchi tadbirkorlik subyektlariga sarflashni ifodalaydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, tijorat banklarining va davlatning hududiy investitsiya bilan bog‘liq ko‘p qirrali faoliyati, tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari, aholi mablag‘larining moddiy va moliyaviy boyliklarni yaratadigan obyektlarga

sarflanadigan moliyaviy resurslarni shakllantirish lozim.

Hududlarda tadbirkorlik subyektlariga investitsiya jalb qilish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- chet el sarmoyasi taqsimoti;
- xorijlik ishbilarmonlar uchun jozibador imkoniyat;
- loyihamalar va hamkorlik;
- mexanizmni takomillashtirish zarurati;
- moliya oqimini ko‘paytirish.

Yuqorida yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda hududiy investitsion siyosatni amalga oshirish tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

➤ iqtisodiy islohotlarni chuqurlashirishga, mintaqalarda ko‘p ukladli iqtisodiyotni, shu jumladan, kichik tadbirkorlikni shakllantirishga, tovar, mehnat va kapitalning umum davlat va hududiy bozorlari hamda institutsional va bozor infratuzilmasi shakllanishiga ko‘maklashish;

➤ hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonidan juda ham katta farqlarni kamaytirish, ularda aholi farovonligini oshirishning o‘z iqtisodiy bazalarini mustahkamlovchi sharoitlarni bosqichma - bosqich yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti shavkat Mirziyoyevning oliy Majlisga Murojaatnomasi. // <http://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliisy-28-12-2018>.
2. Tursunov Imamnazar Egamberdiyevich, Kurbanov Alisher Bobokulovich Innovasionniye podxodi razvitiya predprinimatelstva // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2018. №5 (17).
3. Ekonomika i organizasiya rinochnogo xozyaystva v Rossii M.: Progress, 1995. - 155 s.
4. Rusinov.F.M. Vozrajdeniya predprinimatelstvo v Rossii. Maykop: 1999 27-28 s.
5. Marshall A. Prinsipi ekonomiceskoy nauki. Per. sangl. – M.: Progress, 1993. - 377 s.
6. Kurbanov Alisher Bobokulovich Rol malogo biznesa v innovacionnoy deyatelnosti // Economics. 2020. №1 (44).
7. Bobokulovich, Kurbanov Alisher, and Jalilova Nigora Mavlonovna. "The Role Of Small Business In The National Economy." *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research* 2.07 (2020): 95-98.

8. Kurbanov Alisher Bobokulovich, Alimova Munisa Yulchiyena. Prospects for the development of fruit and vegetable enterprises. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 6, ISSUE 12, Dec. -2022
9. Khamrayeva Sayyora Nasimovna, Kurbanov Alisher Bobokulovich, Fayziyeva Shirin Shodmonovna. Thinking Design an Effective Way to Shape and Develop Innovations. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 7, (2022), pp. 7954-7960.
10. Markaziy osiyo investorlarni nimasi bilan jalb etishi mumkin? // <https://kun.uz/news/2018/10/21>.
11. Qashqadaryo viloyat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari.